

ORIENTFINANSBANK

«TASDIQLANGAN»

“Orient Finans” XATB Kuzatuv

Kengashining

2025 yil 27 iyun dagi 65

sonli bayoniga asosan

Kengash Raisi

B.B. Parpiev

“ORIENT FINANS” XATB DIVIDEND SIYOSATI (4-tahriri)

Boshqaruv Raisi

1 T.F. Djunaydullayev

Boshqaruv a'zolari:

Boshqaruv Raisi
birinchi o'rinbosari

Sh.Sh. To'yboyev

Boshqaruv Raisi
o'rinbosari

B.E. Normatov

Boshqaruv Raisi o'rinbosari-
Ijroiya apparati rahbari

I.T. Tursunov

Bosh buxgalter

D. T. Raximov

Yuridik xizmat
departamenti direktori

T.U. Umarov

Korporativ biznesni rivojlantirish va
kreditlash departamenti direktori

Z.Z. Ro'ziyev

Ushbu hujjat “Orient Finans” XATB xususiy mulki bo'lib, mahfiy tusga egadir. Ushbu hujjatni to'liqligicha va/yoki ayni bir qismlarini, ko'chirma nusxalarini yaratish yoki bank hodimi bo'lmagan uchinchi shaxslarga Boshqaruv Raisi o'rinbosari bilan kelishmagan holda taqdim etilishi taqiqlanadi.

Hujjat kodi

243-440

Amal qilish muddati

30.06.2025

dan

30.06.2030

gacha

Uzaytirilgan

gacha

TOSHKENT 2025

MUNDARIJA

O'zgarishlarni ro'yxatga olish varaqasi.

1. UMUMIY QOIDALAR.....	3
2. ASOSIY ATAMALAR VA TA'RIFLAR.....	3
3. DIVIDEND SIYOSATINING TAMOIYILLARI, DIVIDENDLARNI TO'LASHNING ASOSIY SHARTLARI VA CHEKLOVLARI	3
4. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI	5
5. DIVIDEND SIYOSATINING BAJARILISHINI NAZORAT QILISH.....	6
6. JAVOBGARLIK.....	7
7. YAKUNIY QOIDALAR.....	7

O'zgarishlarni ro'yxatga olish varaqasi.

№ p/p	Varaqlar soni (betlar)				Hujjatdagi barcha varaqlar (betlar)	O'zgartirish №	Imzo	Sana
	O'zgartirilgan	Almashtirilgan	Yangilar	Olinganlar				
1	2	3	4	5	6	7	8	9

HUQUQIY EKSPERTIZA

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomning 3.1-bandiga muvofiq (O'zR AV ro'yxat raqami 916, 05.04.2000y.) Yuridik xizmat departamenti tomonidan «Orient Finans» XATBning dividend siyosati (4-tahriri) huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Ushbu hujjat, Bankning mazkur ichki qoidalarini "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi (O'zR AV ro'yxat raqami 3254, 30.06.2020y.) Nizom hamda boshqa qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu me'yoriy hujjatning qoidalarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga mos keladi.

Yuridik xizmat departamenti
Direktori
T.U.Umarov

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Dividend siyosati (bundan buyon matnda "Siyosat" deb yuritiladi) "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi (O'zR AV ro'yxat raqami 3254, 30.06.2020y.) Nizom hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari va «Orient Finans» XATB (keyingi o'rinlarda - "Bank")ning ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Ushbu Siyosatning maqsadi aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash tamoyillari va shartlarini, ularni to'lash tartibini belgilash, Bank aksiyadorlarining ular tomonidan Bank aksiyalariga investitsiya qilingan mablag'lardan daromad olish manfaatlarini qondirish va Bank dividend siyosatining shaffofligini ta'minlashdan iborat.

1.3. Ushbu Siyosatning vazifalari dividend to'lovlari miqdorini aniqlashda Bank va uning aksiyadorlari manfaatlari muvozanatini topish va ta'minlash, shuningdek, Bankning joriy investitsiya jozibadorligini oshirish va uning kapitallashuvi o'sishini ta'minlashdan iborat.

2. ASOSIY ATAMALAR VA TA'RIFLAR

2.1. **Sof foyda** - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan Bankning balans foydasi.

2.2. **Dividendlar** - soliqlar va majburiy to'lovlar to'langandan, zaxira shakllantirilgandan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talabiga muvofiq tuzatishlar kiritilgandan keyin Bank ixtiyorida qoladigan va aksiyadorlar o'rtasida aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadigan tartibda va miqdorda ularga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanishi kerak bo'lgan Bank sof foydasining bir qismi.

2.3. **E'lon qilingan dividendlar** - aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ularni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar.

2.4. **Aksiyadorlar - oddiy aksiyalarning egalari** - aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida uning vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ishtirok etish va ovoz berish huquqi bilan aksiyaga egalik qiluvchi, shuningdek dividendlar olish huquqiga ega bo'lgan, aksiyadorlik jamiyati tugatilgan taqdirda esa unga tegishli ulushga muvofiq uning mol-mulkinging bir qismini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar.

2.5. **Aksiyadorlar - imtiyozli aksiyalarning egalari** - aksiyalar bo'yicha dividendlarni, shuningdek, aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni (Bank tugatilganda) birinchi navbatda olish huquqiga ega bo'lgan aksiyalarga egalik qiluvchi shaxslar. Bunday turdagi aksiyalarga ega bo'lgan shaxslar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda va Bank ustavida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

3. DIVIDEND SIYOSATINING TAMOIYILLARI, DIVIDENDLARNI TO'LASHNING ASOSIY SHARTLARI VA CHEKLOVLARI

3.1. Dividend siyosatining tamoyillari.

3.1.1. Ushbu Siyosat Bankning foydadan foydalanish bo'yicha umumiy siyosatining elementi bo'lib, u Bankning o'z aylanma mablag'larini qo'llab-quvvatlash uchun uning iste'mol qilingan va qoldirilgan qismlari o'rtasidagi nisbatlarni optimallashtirishdan iborat.

3.1.2. Siyosat Bank aksiyadorlarining huquqlarini hurmat qilish va ularga qat'iy rioya qilishga, shuningdek, dividend to'lovlari miqdorini va aylanma mablag'larni,

Bankning investitsiyaviy jozibadorligini qo'llab-quvvatlash va boshqa vazifalarni hal qilish uchun foydalaniladigan foydaning bir qismini aniqlashda Bank va uning aksiyadorlari manfaatlarining muvozanatiga asoslanadi.

3.1.3. Bankning istiqboldagi siyosati quyidagi holatlarni hisobga oladi:

- Bank aksiyadorlarining ular tomonidan Bank aksiyalariga investitsiya qilingan mablag'lardan daromad olishdagi manfaatlarini qondirish;

- dividendlar tarixini shakllantirish tan olingan korporativ boshqaruv amaliyotining eng muhim elementlaridan biri bo'lib, Bankning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam beradi;

- Bankning o'z mablag'larining yetarli qo'yiladigan talablar darajasining oshishi uning kapitalini ko'paytirish zaruratini keltirib chiqaradi, bu esa asosiy omillardan biri va Bank faoliyati samaradorligini aniqlash mezon bo'lib, bozor qiymatini aks ettiradi va Bankning faol operatsiyalari ko'lamini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa, o'z navbatida, Bank tomonidan qo'shimcha foyda olishning kumulyativ ta'siriga olib keladi;

- hududlarda bank xizmatlari sotish nuqtalarini kengaytirish, faoliyat ko'lamini oshirish va moliyalashtirish manbai Bankning o'z mablag'lari bo'lgan bir qator investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

- Bankning Kuzatuv kengashi Bankning sof foydasini taqsimlashda Bankning o'z aylanma mablag'larini ko'paytirishni afzal ko'radi.

3.2. Bank aksiyadorlariga dividendlar to'lashning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- Bankda o'tgan davrlar uchun taqsimlanmagan foydaning mavjudligi;
- dividendlar to'lash bo'yicha cheklovlarining mavjud emasligi;
- Bank Kuzatuv kengashining aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga yillik dividendlarni to'lash to'g'risidagi tavsiyasining mavjudligi;

- Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining aksiyadorlarga dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori mavjudligi.

3.3. Dividendlar to'lashdagi cheklovlar.

3.3.1. Bank aksiyadorlarga dividendlar to'lash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda amalga oshirishga haqli emas:

- prudensial normativlarning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan talablarga nomuvofiqligi yoki ushbu taqsimlash oqibatida ularning buzilishi;

- mazkur taqsimlash oqibatida to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) yoki to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) alomatlarining yuzaga kelishi;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmasida, shu jumladan axborotni oshkor etish qismida ko'rsatilgan kamchiliklar bajarilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmaganda;

- Markaziy bankning Bankka foydani taqsimlamaslik to'g'risidagi talabi mavjudligi.

3.3.2. Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roziligini olishi kerak:

- agar prudensial normativlarning Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga nomuvofiqligi yoki dividendlarni taqsimlash natijasida ularning buzilishi mavjud bo'lsa, to'lovlarning umumiy summasi Bank xususiy kapitalining 10 foizidan oshsa;

- joriy yoki o'tgan chorak va (yoki) moliya yili uchun zararning mavjudligi.

3.4. Foydaning yetarli emasligi sababli dividendlarni to'lashdan bosh tortish.

3.4.1. Agar taqsimlanmagan foyda hisobvarag'ida aks ettirilgan summa dividendlarni to'lashni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli bo'lmasa, bank dividendlarni to'lashdan o'zini tiyishi lozim.

3.4.2. Shuningdek, dividendlarni to'lashda hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlar summasiga tuzatilgan amaldagi mavjud foydadan kelib chiqish lozim.

3.4.3. Bank, agar uning kapitali yetarli bo'lmasa yoki dividendlarni to'lash kapitalning yetishmasligiga olib kelsa, dividendlarni to'lashdan o'zini tiyishi kerak.

4. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI

4.1. Dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilish tartibi.

4.1.1. Bank Kuzatuv kengashining dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi bo'yicha tavsiyasi aksiyadorlarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Ustavga va Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yakuniy qaror qabul qilish uchun taqdim etiladi.

4.1.2. Dividendlarni to'lash (e'lon qilish) yoki to'lamaslik to'g'risidagi yakuniy qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan hisobot davri natijalari bo'yicha Bank foydasini taqsimlash to'g'risidagi qarorning tarkibiy qismi sifatida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi alohida masala bo'yicha qaror sifatida qabul qilinadi.

4.1.3. O'tgan davr natijalari bo'yicha olingan taqsimlanmagan foydadan to'lanadigan dividendlar miqdori Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan oshmasligi kerak.

4.1.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muayyan turdagi aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lamaslik, shuningdek, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'liq bo'lmagan miqdorda to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

4.1.5. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va to'lash tartibi aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori va Bank ustavi bilan belgilanadi.

4.2. Dividendlarni hisoblash.

4.2.1. Dividendlar Bank ixtiyorida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Muayyan turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Bankning maxsus ajratilgan mablag'lari hisobidan to'lanishi mumkin.

4.2.2. Aksiyalar bo'yicha dividendlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi:

- muomalaga chiqarilmagan (joylashtirilmagan);
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4.2.3. Kasr qismlarni o'z ichiga olgan aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar summasi matematik qoidalarga muvofiq yaxlitlanadi.

4.3. Dividendlarni to'lash tartibi.

4.3.1. Dividendlar olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinadigan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati tuzilgan sanada tuziladi.

4.3.2. Dividendlar olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatiga reestrni yuritish tizimida ro'yxatga olingan shaxslar (nominal saqllovchilardan tashqari) va nominal saqllovchi ro'yxatni tuzish sanasida manfaatlarini ko'zlab aksiyalarni ushlab turgan shaxslar kiritiladi. Dividendlar olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatini tuzish uchun aksiyalarning nominal egasi ushbu ro'yxatni tuzish sanasida o'z manfaatlarini ko'zlab aksiyalarni ushlab turgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

4.3.3. E'lon qilingan dividendlar aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan ularni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran agar dividend to'lash vaqtida qonunchilikda boshqacha muddat belgilanmagan bo'lsa, 60 kundan kechiktirmay to'lanadi.

4.3.4. Dividendlar Bank ixtiyorida qoladigan sof foyda va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan naqd pulda to'lanadi.

4.3.5. Dividendlarni to'lashda birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi.

4.3.6. Bank har chorakda, yarim yilda bir marta yoki yiliga bir marta, agar Bank ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga (e'lon qilishga) haqli.

4.3.7. Har bir turdagi aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash (choraklik, yarim yillik, yillik), dividend miqdori va uni to'lash shakli to'g'risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.3.8. Bank O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan aksiyadorning yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin almashtiriladigan valyutaga konvertatsiya qilishi, mablag'larni norezident aksiyador tomonidan taqdim etilgan bank hisob raqamiga o'tkazishi shart.

4.3.9. Bank Boshqaruvi aksiyadorlarga e'lon qilingan dividendlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlaydi.

4.4. Huquq va javobgarlik.

4.4.1. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga dividendlar to'lanishini e'lon qilmaslikni tavsiya qilishga haqli.

4.4.2. Bank uchun kutilmagan salbiy holatlar mavjud bo'lganda, Bank Kuzatuv kengashi Bank aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishiga dividendlarni to'lamaslik (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qilishni tavsiya qilishi shart.

4.4.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muayyan turdagi aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lamaslik, shuningdek, dividend miqdori Bank ustavida belgilangan imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'liq bo'lmagan miqdorda to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

4.4.4. E'lon qilingan dividendlarni to'lash Bankning majburiyati hisoblanadi. Bank bu majburiyatni bajarmaganligi uchun aksiyadorlar oldida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

4.4.5. E'lon qilingan dividendlar belgilangan muddatda to'lanmagan taqdirda, aksiyador o'ziga tegishli dividendlar summasini Bankdan undirish to'g'risida sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishga haqli.

4.4.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarorlarining o'z vaqtida va aniq bajarilishi uchun mas'uliyat Bank Boshqaruviga yuklanadi.

4.4.7. Bank, Reyestr saqlovchi va ularning mansabdor shaxslari dividendlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi va shu munosabat bilan yetkazilgan zararlar uchun, agar aksiyador o'z yashash joyi (joylashgan yeri), aniq bank rekvizitlari, pasport ma'lumotlari va pochta manzili (jismoniy shaxslar uchun) o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Bankning Reyestr saqlovchisiga o'z vaqtida taqdim etmagan bo'lsa yoki aksiyadorlar reyestrda ro'yxatdan o'tgan shaxsning anketasida noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatgan bo'lsa, buning natijasida unga dividendlarni belgilangan muddatda to'lashda qiyinchiliklar yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydilar. Kuzatuv kengashi a'zolari, Bankning mansabdor shaxslari ushbu Siyosat qoidalariga rioya qilish uchun javobgardirlar.

5. DIVIDEND SIYOSATINING BAJARILISHINI NAZORAT QILISH.

5.1. Bank tomonidan ushbu Dividend siyosatining bajarilishi va aksiyadorlarga dividendlar to'lash bilan bog'liq bank operatsiyalarining amalga oshirilishi ustidan nazorat Bankda amal qiladigan umumiy ichki nazorat tizimi doirasida amalga oshiriladi.

6. JAVOBGARLIK

6.1. Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari, shuningdek Amaliyot boshqarmasi boshlig'i va Bank xizmatlari markazi boshqaruvchilari ushbu Dividend siyosatining tamoyillari va talablariga rioya etilishi uchun javobgardirlar.

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Ushbu Dividend siyosati Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Yuridik xizmat departamenti Metodologiya va huquqiy ta'minot bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

7.2. Agar ushbu Dividend siyosatining ayrim qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki Bank Ustaviga zid bo'lsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalar bilan tartibga solinadigan masalalarda ushbu Dividend siyosatiga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Bank Ustavi qoidalariga amal qilish kerak.


7.3. Mazkur hujjatning asl nusxasini saqlash va nazorat nusxalarini taqdim etish Yuridik xizmat Departamentining Metodologiya va huquqiy ta'minot bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

7.4. Mazkur hujjatni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirishlar kiritish, o'z kuchini yo'qotgan deb topish va boshqa holatlarda hujjat ishlab chiquvchisi tomonidan 2024 yil 23 may sanasida Bank Boshqaruving 54-sonli bayoni asosida tasdiqlangan, 5-tahrirdagi "Orient Finans" XATBda hujjatlarni yuritish tartiboti"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Matn oxiri

Ishlab chiqilgan:

G'aznachilik departamenti
direktori



Z.X. Payziyev


Kelishilgan:

Tavakkalchilikni boshqarish
departamenti direktori



Sh.U. Shadmanov

Korrupsiyaga qarshi
komplaens boshqarmasi
boshlig'i



Sh.Sh. Shamansurov